

BO‘LAJAK TEMIR YO‘L XODIMLARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISH

Kurbanova Mariyam Dilshot qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi
Email: imaryam932218@gmail.com
Telefon: 998 97 712 34 00

Annotatsiya. Ushbu maqolada temir yo‘l transporti sohasida faoliyat yurituvchi o‘rta bo‘g‘in vakillarini tayyorlashning ba‘zi o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Temiryo‘lchi kasbiga qo‘yiladigan maxsus talablar, professional ta‘lim muassasasi o‘quvchilarini shu talablar doirasida tarbiyalash masalalari izohlangan. O‘quvchilarning umumiy va kasbiy kompetensiyalari ajratib ko‘rsatilgan va tegishli ta‘riflar berilgan.

Kalit so‘zlar: ta‘lim, kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, umumiy kompetensiya, pedagogik sharoitlar.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ РАБОТНИКОВ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ДОРОГИ

Kurbanova Mariyam Dilshot qizi
Ташкентский международный университет Кимё, исследователь
Email: imaryam932218@gmail.com
Telefon: 998 97 712 34 00

Аннотация. В данной статье освещены некоторые специфические аспекты подготовки представителей среднего звена, работающих в сфере железнодорожного транспорта. Разъясняются специфические требования к профессии железнодорожника, вопросы обучения студентов профессионального образовательного учреждения в рамках этих требований. Выделены общие и профессиональные компетенции студентов и даны соответствующие определения.

Ключевые слова: образование, компетенция, компетентность, профессиональная компетентность, общая компетентность, педагогические условия.

FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE RAILROAD EMPLOYEES

Kurbanova Mariyam Dilshot qizi
Kimyo international university in Tashkent, Researcher
Email: imaryam932218@gmail.com

Telefon: 998 97 712 34 00

Annotation. This article highlights some specific aspects of the training of mid-level representatives working in the field of railway transport. The specific requirements for the profession of a railway worker are explained, as well as the issues of training students of a vocational educational institution within the framework of these requirements. General and professional competencies of students are highlighted and corresponding definitions are given.

Key words: education, competence, competency, professional competence, general competence, pedagogical conditions.

KIRISH.

Bugungi kunda “Farzandlarimiz bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lishlari shart!” degan hayotiy da‘vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o‘rin egallagan. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo‘lgan, bugungi va ertangi kunimizning hal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi. Bu sohada olib borilayotgan ishlarimizni, xususan, ta‘lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta‘lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta‘lim berish, ularni jismoniy va ma‘naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iborat. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylarini yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta‘minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqazo etmoqda [1; 13-14-b.].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamiz olimlaridan A.Maxmudov [4], N.Muslimov, M.Urazova, Sh.Eshpulatov [5] lar tomonidan kasbiy kompetentlikni rivojlantirish muammolari o‘rganilgan. Kasbiy kompetentlik va kompetentlik fenomeni (hodisasi, tushunchasi) A.A.Verbitskiy [7], E.F.Zeyer [8], I.A.Zimnaya [9], kabi MDH mamlakatlari olimlari ishlarida ochib berilgan.

Kompetentlikka yo‘nalgan ta‘limning turli aspektlari M.B.Balikayeva [2], M.L.Blinova [3] A.G.Sergeyev [6] va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada professional ta'lim muassasasida bo'lajak temir yo'l xodimlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish va buning uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish masalasi muhokama qilindi. Kasbiy kompetentlikning tarkibi va qismlari tavsiflandi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Temir yo'l muhandisi kasbi bugungi kundagi eng muhim kasblardan biri bo'lib, chuqur bilim, ko'nikma va muayyan shaxsiy xususiyatlarni talab qiladi. Temir yo'l muhandisi yetarlicha yuqori malakali mutaxassis bo'lishi, ishlab chiqarish va texnologik, tashkiliy va boshqaruv, loyihalash va qidiruv, ilmiy-tadqiqot va boshqa faoliyatlarni amalga oshirishi kerak; ishlab chiqarish muammolarini hal qila olishi, o'z faoliyati natijalari uchun javobgarlikni to'la his qila oladigan bo'lishi kerak.

Temiryo'l transporti kadrlariga qo'yiladigan talablar yuqori va spetsifik. Ish beruvchi tarafidan mutaxassisning tibbiy va psixofiziologik holati bilan bir qatorda shaxsiy sifatlari: uning xulqi, asab tizimining barqarorligi, mustaqil qaror qabul qila olishi, o'z-o'zini nazorat qila olishi, mustaqillik, kommunikativ malakalar va tor vaqt oralig'ida ishlash qobiliyati kabilarga ham ma'lum talablar qo'yiladi. Shunday ekan, zamonaviy ta'lim muassasasi faoliyati nafaqat ta'lim standartlarida belgilab berilgan umumkasbiy va kasbiy kompetentlikni balki, bo'lajak mutaxassisning shaxsiy kompetentligini ham shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.


Bo'lajak temir yo'l xodimlarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning asoslari umumkasbiy va kasbiy kompetentlikni egallash darajasiga bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun biz ularni batafsil ko'rib chiqamiz.

Umumkasbiy kompetentlik muhandislik kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, kasb yoki kasb sohasi doirasida namoyon bo'ladi. Ular ma'lum bir kasbiy faoliyatga qobiliyat va tayyorlikning dastlabki darajasini shakllantirishni o'z zimmalariga oladilar.

Umumkasbiy kompetentlikni faqat ma'lum bir ish usullarini o'zlashtirish, turli xil xarakterdagi aniq professional muammolarni muhokama qilish va hal qilishda qatnashish orqali shakllantirish mumkin.

Ta'lim oluvchilarning umumkasbiy kompetentligi shakllanishi deganda shaxsning rivojlanish jarayoni tushuniladi. Bu jarayon tashqi faktorlar ta'sirida, ya'ni fan doirasidagi bilim, ko'nikma va individual qobiliyatlarni bo'lajak kasb obyektlariga ko'chirish asnosida ro'y beradi. Bu orqali talabalar real ishlab chiqarish sharoitida sodir bo'ladigan kasbiy muammolarni yechish tajribasini bevosita ta'lim jarayonida egallaydilar.

Bo'lajak mutaxassislariga tarmoq standarti, mehnat bozori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qo'yadigan talablarni o'rganib chiqqan holda, umumkasbiy (1-rasmga qarang) va kasbiy kompetensiyalar (2-rasmga qarang) kompleksini ishlab chiqdik.



1-rasm. Bo'lajak temir yo'l xodimlarining umumkasbiy kompetensiyalari.

Umumkasbiy kompetensiyalarga quyidagilarni kiritdik:

Bilishga oid yoki gnostik - Turli axborotlarni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish;

Qadriyatli-yo'nalgan - Mutaxassis faoliyatining maqsadli-motivatsion aspektini ochib beruvchi, jamiyat va ishlab chiqarish muhitida shakllangan

qadriyatlarni, axloqiy-etik me'yor va qoidalarini o'zlashtirish hamda qabul qilish qobiliyati;

Kommunikativ - Shaxslararo munosabat doirasini belgilaydigan kasbiy faoliyat sohasi, jamiyat, boshqa ijtimoiy institutlardagi tipik kommunikativ muammolar va ularni yechish usullari;

Texnik-texnologik - Umumiy tamoyillarni ochib berishga xizmat qiluvchi shaxs va jamoaning faoliyatini rejalashtirish, texnikani loyihalashtirish va hisoblash, ishlab chiqarish jarayoni texnologiyasini tadbiq etish usullari va vositalari;

Estetik - Mehnat mahsuli va kasbiy faoliyat jarayonini mukammallashtirish bilan bog'liq kompetensiyalar;

Jismoniy - Mutaxassisning jismoniy imkoniyatlari va ma'lum psixomotorik faoliyatni amalga oshirish qobiliyatiga qo'yiladigan talablar.

Kasbiy kompetentlik - bu:

- professional faoliyat turi muammolarini hal qilishda amaliy tajriba, ko'nikma va bilimlar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyati;
- belgilangan standartlarga muvofiq vazifalarni bajarish qobiliyatining yetarli malakasi;
- individning yetarli yoki adekvat jismoniy, intellektual va shaxsiy sifatлари;
- bilim, qobiliyat, xulq-atvorni qamrab oladigan malakali va ma'lum bir rolni bajarishga qodir bo'lish qobiliyati.



2-rasm. Bo'lajak temir yo'l xodimlarining kasbiy kompetensiyalari
Kasbiy kompetensiyalarga kompetensiyalarga quyidagilarni kiritdik:

Texnologik - Ishlab chiqarish jarayonining operatsion qismi, uning nazorati va amalga oshish mexanizmini baholash ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining loyihaga mosligi, o'z faoliyati samaradorligini bilan bog'liq kompetensiyalar.

Loyihaviy-konstruktiv – Ishning joriy va kelajakdagi holatini rejalashtirish, jarayonni loyihalash, aniq vazifa, texnologik va diagnostik funksiya, operatsiyalarni bajarish uchun zarur texnika va asbob-uskunlarni tanlay olish.

Ilmiy-tadqiqot - Ishlab chiqarish jarayonini mukammallashtirish uchun intellektual, texnologik, tajriba-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish.

Tashkiliy-boshqaruv - Ishlab chiqarish jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan kompetentlik.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda bo'lajak temiryo'l xodimlarining kasbiy kompetentligi - bu kasbiy muammolarni hal qilishda amaliy tajriba, ko'nikma va bilimlar asosida muvaffaqiyatli harakat qilish qobiliyatidir degan xulosaga kelish mumkin.

XULOSALAR

Bizning fikrimizcha, "kasbiy kompetentlik" atamasi ma'lum darajada shartli, umumlashtiruvchi tushuncha hisoblanadi, chunki kasbiy kompetentlikning tarkibiga garchi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lsada, ammo alohida-alohida kompetensiyalar kompleksi kiradi.

Shunday qilib, kasbiy kompetentlik umumiy talablardan tashqari, mutaxassisning bilim va ko'nikmalari, individual xususiyatlari, o'z o'zini rivojlantirish qobiliyati va bunga tayyorlik darajasiga ham bog'liq.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, Toshkent temir yo'l texnikumi tomonidan maxsus pedagogik muhit tashkil etilgan bo'lib, bu muhit bo'lajak temiryo'l xodimlarining kasbiy kompetentligi bilan bir qatorda shaxsiy kompetentligining shakllanishi uchun imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 28 b.
2. Баликаева, М. Б. Развитие самообразования студентов вуза в условиях реализации компетентностного подхода: дис. ... канд.пед.наук / Баликаева, Марина Бембаевна – Омск, 2007. – 207 с. – С.39.
3. Блинова, М.Л. Обеспечение преемственности в развитии профессиональной компетентности студентов и начинающих специалистов: монография / М.Л. Блинова. – Йошкар-Ола: МОСИ – ООО «СТРИНГ», 2012. – 181с.
4. Maxmudov A.X. Oliy ta'lim tizimi talabalarida kompetentlikni kreativ pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish // Xalq ta'limi O'zRXTV ilmiy-metodik jurnali 2018 yil 4-son, 7-14 betlar
5. Муслимов Н.А., Уразова М.Б., Эшпулатов Ш.Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 б.
6. Сергеев А.Г. Компетентность и компетенции: монография / А.Г.Сергеев; Владим. гос. ун-т. – Владимир: Изд-во Владим. гос. ун-та, 2010. – 107 с.
7. Вербицкий А.А. Контекстное обучение в компетентностном подходе / Высшее образование в России. – 2006. - № 11, 39-46 стр.
8. Зеер, Э. Ф. Компетентностный подход к образованию // Образование и наука: Изв. Урал. отд. РАО, 2005. – № 3(33). – С. 6
9. Зимняя И.А. Ключевые компетенции новая парадигма результата образования ЭКСПЕРИМЕНТ И ИННОВАЦИИ В ШКОЛЕ // Международный журнал экспериментального образования. – 2009. – № 2. – С. 7-14